

## **Bolshiviklar va muxtoriyat hukumati**

Toshkandda bo‘lib o‘tmish ishchi va soldatlar siezdinda bolshiviklar aksariyat tashkil qilgon sababli siezdnинг prug‘rommasig‘a qo‘yulgo masala bolshiviklar foydasig‘a hal qilindi. Siezdda Turkistonda hukumat tashkil qiluv masalasiq‘a kelganda Xo‘qandagi muvaqqat muxtoriyat hukumatining tonimoslik hamda tezlik birlan muxtoriyat hukumatining tarqotmakga qaror qilindi.

Turkistonda hukumat boshida turgon xalq komisiyolarin tasdiq qilib bularg‘a bir necha komissiyolar soylob qo‘ydilar.

Turkiston musulmon ishchilarining tashkilotlari dimuqrot usulida qurulmagon jihatindin to ishchilar tashkiloti dimuqrotichiskiy tashkilot bo‘lg‘unicha xalq komisorlari qo‘linda turur. Bad az musulmon ishchi kambag‘allar qo‘lig‘a hukumatni topshurmoqka qaror qilindi. Endi so‘z faoliyatga chiquvinda bul to‘g‘rida biz ishchilar bolshiviklarning ishchilar manfaatiga talashgonlariga tahsin qilomiz.

*G‘ulom Zafariy. “Ishchilar dunyosi” jurnali.  
1918 yil, 18 yanvar. 4-son. 12-bet.*